



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlari tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimpursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини худудий ташкил этиш ва ихтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta’siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo‘jayeva I.O‘. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo‘nak to‘lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta’siri va ularni optimallashtirish bo‘yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O‘zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to‘lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo‘llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko‘rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellashtirish va prognozlash.....	216
Xo‘jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo‘g‘inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo‘ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O‘zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kўrinishlari.....	287
Юлдашев А. Фарғона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O‘zbekiston sug‘urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo‘nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko‘paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta’lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo‘lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog‘ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxonada iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiri.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида энгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojidinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’uriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifi yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari to‘plami. – Toshkent, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.
5. Sh.O.Olimjanova, N.G.Muminov, G.M.Zaxirova, F.M.Xalmatjanov. «Tarmoqlar iqtisodiyoti». Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent.: «Alfraganus University», 2025.

UDK:336.7

**O‘ZBEKISTONDA NEFT-GAZ SANOATIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING
INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ
ИНВЕСТИЦИЙ В НЕФТЕГАЗОВУЮ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ УЗБЕКИСТАНА**

**INSTITUTIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR ATTRACTING INVESTMENTS
INTO THE OIL AND GAS INDUSTRY IN UZBEKISTAN**

Valikulov Sherzod Zaynitdinovich Toshkent davlat texnika universiteti
Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekistonda neft va gaz sanoati korxonalarida investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirishda loyihalarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari haqida yozilgan. Bunda, ushbu yo‘nalishga oid qonun va qarorlarni tahlillari keltirilgan va kerakli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion faoliyat, investorlar, samaradorlik, qaror, vakolatli organ, nizom, normativ-huquqiy hujjat.

Данная статья посвящена организационно-правовым основам реализации проектов по повышению экономической эффективности инвестиционной деятельности на предприятиях нефтегазовой отрасли Узбекистана. В ней приведён анализ соответствующих законов и постановлений в данной сфере, а также сформированы необходимые выводы.

Ключевые слова: Инвестиционная деятельность, инвесторы, эффективность, решение, уполномоченный орган, устав, нормативно-правовой акт.

This article discusses the organizational and legal foundations for implementing projects aimed at increasing the economic efficiency of investment activities in oil and gas industry enterprises in Uzbekistan. It analyzes relevant laws and regulations in this field and formulates the necessary conclusions.

Keywords: investment activity, investors, efficiency, decision, authorized body, regulation, regulatory legal act.

2030 – yilga qadar O‘zbekistonda tabiiy gaz qazib olish hajmi 66,1 milliard kub metrni tashkil etishi rejalashtirilgan. O‘z navbatida iste‘mol 56,5 milliard kub metrga yetadi. Bu ichki iste‘molchilar talabini qondirish va tabiiy gazni xom ashyo sifatida chuqur qayta ishlash ustuvorligiga o‘tishni anglatadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan tabiiy gazni chuqur qayta ishlash hamda uning samaradorligini oshirish va bozor munosabatlariga o‘tkazish maqsadida tarmoqni isloh qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi neft va gaz sanoatida investitsion faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy tizim hamda ushbu tarmoqda investitsiyalarni jalb etish va amalga oshirish jarayonlari mazkur tadqiqotning obyekti sifatida qaraladi.

Tadqiqot predmeti – neft va gaz sanoatida investitsion faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekiston Respublikasi neft va gaz sanoatida investitsion faoliyat samaradorligini oshirishda normativ-huquqiy hujjatlar va tashkiliy mexanizmlarning (xususan, bojxona tartiboti, mahsulot taqsimoti bitimlari hamda Prezident qarorlari) rolini kompleks tahlil qilish hamda investitsiya muhitini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. [1] O‘zbekiston neft va gaz sanoati: Transformatsiya yo‘li bilan bozor munosabatlariga o‘tish. [2] Lex.uz 24.07.2008 – yil sanasida qabul qilingan va 22.04.2025 – yil sanasi holatidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ – 927 sonli qarori. [3] Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Neft-gaz tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 30.06.2017 yildagi PQ-3107-sonli qarori. [4] Nishanbay Sirajiddinov, Sardorbek Murtozaev. Fdi dynamics in uezbekistan: trends, reforms and institutional perspectives, fdi dynamics in uezbekistan: trends, reforms and institutional perspecti. “International Economic Trends”

Mazkur tadqiqot neft va gaz sanoatida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish masalasini yoritishda tizimli, normativ-huquqiy, iqtisodiy hamda qiyosiy tahlil metodlariga tayangan holda amalga oshirilgan. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosiy metodologik poydevor bo‘lib xizmat qilgan bo‘lib, u neft-gaz sanoati, investitsion jarayonlar, davlat boshqaruvi organlari va normativ-huquqiy hujjatlarni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon bergan. Bu yondashuv orqali investitsion faoliyat samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar kompleks tarzda tahlil qilingan.

Qiyosiy tahlil metodi orqali turli normativ-huquqiy hujjatlar o‘zaro solishtirilgan, ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlangan hamda investitsion jarayonlarga ta’siri nuqtai nazaridan baholangan. Bu yondashuv mavjud boshqaruv va tartibga solish mexanizmlarini yanada samarali tushunish imkonini bergan.

Bundan tashqari, tadqiqotda analitik va sintetik metodlar uyg‘unligi qo‘llanilgan. Dastlab alohida normativ hujjatlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va boshqaruv mexanizmlari tahlil qilinib, keyinchalik ularning asosida umumiy ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Bu esa tadqiqotning ilmiy asoslanganligini va xulosalarning ishonchligini ta’minlagan.

Mazkur tadqiqot tizimli, normativ-huquqiy, iqtisodiy, qiyosiy hamda analitik-sintetik metodlar asosida olib borilgan bo‘lib, ular neft va gaz sanoatida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish masalasini har tomonlama chuqur o‘rganish imkonini bergan.

Neft va gaz sanoatining bozor qonuniyatlari asosida rivojlanishi raqobat uchun sharoit yaratadi, bu esa ishlab chiqarish, tashish, qayta ishlash samaradorligini oshirish, eng muhimi, iste’molchilarni tabiiy gaz bilan uzluksiz ta’minlash imkonini beradi. Shuningdek, loyihalarni amalga oshirishga nafaqat mablag‘ga, balki zamonaviy texnologiyalar va tajribaga ega bo‘lgan investorlarni ham jalb etish imkonini beradi.[1] Yuqorida aytib o‘tilgan rejalarni amalga oshirish yuzasidan sohada investorlar erkin faoliyat yuritishi va ularni huquqlarini himoya qilish maqsadida bir nechta qonun va qarorlar qabul qilindi va kuchga kirdi.

“24.07.2008 – yil sanasida qabul qilingan va 22.04.2025 – yil sanasi holatidagi amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ – 927 son qarori.”[2] O‘zbekiston Respublikasi neft va gaz sanoati milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblanib, uning barqaror rivojlanishi bevosita investitsion faollik, ayniqsa xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish samaradorligiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ–927 qarori bilan xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish jarayoni markazlashgan, izchil va institutsional jihatdan muvofiqlashtirilgan tizim asosida yo‘lga qo‘yildi. Qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi

Iqtisodiyot vazirligi ushbu jarayonda yetakchi bo‘g‘in sifatida belgilanishi neft va gaz sanoati loyihalari uchun muhim tashkiliy afzalliklar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ–927 qaroriga muvofiq, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi zimmasiga yuklatilgan investitsiya takliflarining yagona bazasini shakllantirish va xorijiy investorlar bilan ishlash funksiyalari neft va gaz sanoati uchun quyidagi iqtisodiy natijalarni ta‘minlaydi: tarmoq bo‘yicha investitsiya loyihalarining shaffofligini oshiradi, xorijiy investorlar uchun axborot asimetriyasini kamaytiradi, investorlar bilan tuziladigan shartnomalarning huquqiy aniqligini mustahkamlaydi. Natijada neft va gaz sanoatida investitsiya risklari pasayib, kutilayotgan daromadlilik darajasi oshadi. Bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish uchun muhim institutsional omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ–927 qarori bilan tasdiqlangan “Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish va o‘zlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom” neft va gaz sanoati investitsion faoliyatining huquqiy asoslarini yanada aniqlashtiradi. Xususan, Nizomda belgilangan moliyalashtirish manba (to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar, davlat kafolatisiz jalb qilinadigan xorijiy kreditlar) lari neft va gaz sanoati loyihalarini moliyalashtirishda moliyaviy diversifikatsiyani ta‘minlaydi. Bu esa kapital qiymatini pasaytirish, moliyaviy barqarorlikni oshirish va investitsiya loyihalarining sof joriy qiymatini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ–927-son qarori O‘zbekistonda neft va gaz sanoati korxonalarida investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirishda loyihalarni amalga oshirishning muhim tashkiliy-huquqiy asosi hisoblanadi. Qaror, investitsiya jarayonlarini markazlashgan holda muvofiqlashtirish, loyiha tanlash va monitoring mexanizmlarini institutsional mustahkamlash hamda xorijiy investorlar uchun huquqiy aniqlik va ishonchni oshirish orqali neft va gaz sanoati investitsiyalarining rentabelligi va barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Neft-gaz tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 30.06.2017 yildagi PQ-3107-sonli qarori.”[3] Neft-gaz sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi investitsion faoliyat samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda tarmoqni modernizatsiya qilish, chuqur qayta ishlashni kengaytirish va yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar eksportini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur qaror quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi:

1. Boshqaruv tizimini restrukturizatsiya qilish. Qarorga muvofiq: “O‘zbekneftgaz” AJ va uning tarkibidagi tashkilotlar qayta tashkil etiladi, tashkiliy tuzilma maqbullashtiriladi. Investitsiya loyihalarida vaqt omili muhim hisoblanadi. Boshqaruvning soddalashtirilishi kapital qo‘shilmalarning aylanish tezligini oshiradi va ichki rentabellik normasi (IRR) ko‘rsatkichlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

2. Korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish. Qarorda ilg‘or xalqaro tajriba asosida korporativ boshqaruvni joriy etish vazifasi qo‘yilgan. Bu esa o‘z navbatida Kuzatuv kengashlari va mustaqil direktorlar institutini kuchaytirish, Moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish va Ichki audit va risk-menejment tizimlarini rivojlantirishni anglatadi.

Natijada, kapitalning o‘rtacha tortilgan qiymati pasayadi va loyihalarning sof joriy qiymati oshadi.

“O‘zbekneftgaz” AJ ga 2016–2025 yillar davomida jalb qilingan investitsiyalar hajmi tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur davrda investitsiya jarayonlari notekis, ammo muayyan qonuniyat asosida rivojlangan. Umumiy hisobda kompaniyaga kiritilgan investitsiyalar hajmi 19 222,9 mln AQSh dollarini tashkil etib, bu ko‘rsatkich neft-gaz sanoatini rivojlantirishda muhim moliyaviy manba bo‘lib xizmat qilgan.

1-jadval

“O‘zbekneftgaz” AJ ga 2016–2025 yillar davomida jalb qilingan investitsiyalar hajmi

	2016	2020	2021	2022	2023	2024	2025	2016-2025 yy. jami
“O‘zbekneftgaz”AJ	2 992,7	1 440,3	1 051,6	655,2	1 051,3	1 365,6	1 449,6	19 222,9

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2016–2019 yillar oralig‘ida investitsiya hajmi nisbatan yuqori darajada bo‘lib, o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, 2017 yilda investitsiyalar 3 635,5 mln dollarni tashkil etib, butun davr ichidagi eng yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan. 2018 yilda ma‘lum darajada pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2019 yilga kelib yana o‘shish qayd etilgan. Ushbu davrda yirik investitsion loyihalar, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish hamda yangi konlarni o‘zlashtirish ishlari faol amalga oshirilganini ko‘rish mumkin.

Biroq 2020–2022 yillar davomida investitsiya hajmida keskin pasayish yuzaga kelgan. Ayniqsa, 2022 yilda investitsiyalar hajmi 655,2 mln dollarni tashkil etib, eng past darajaga tushib qolgan. Bu holat, avvalo, global iqtisodiy beqarorlik hamda COVID-19 pandemiyasi ta‘siri bilan izohlanadi. Mazkur omillar natijasida xalqaro investitsiya oqimlari qisqargan, energetika bozorida noaniqlik kuchaygan va investitsiya risklari ortgan.

2023–2025 yillarda esa investitsiya hajmida bosqichma-bosqich tiklanish jarayoni kuzatiladi. 2023 yilda investitsiyalar 1 051,3 mln dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 va 2025 yillarda mos ravishda 1 365,6 mln va 1 449,6 mln dollarga yetgan. Bu esa sohada olib borilayotgan islohotlar, investitsion muhitning yaxshilanishi hamda xorijiy investorlar ishonchining asta-sekin tiklanayotganidan dalolat beradi. Shunga qaramasdan, mazkur ko‘rsatkichlar hali 2017–2019 yillardagi yuqori darajaga yetmagan.

Umuman olganda, “O‘zbekneftgaz” AJda investitsiya faoliyati “o‘shish – pasayish – tiklanish” bosqichlari orqali rivojlanganini ko‘rish mumkin. Bu esa korxonada investitsiya jarayonlarining tashqi iqtisodiy omillarga sezgir ekanligini, shu bilan birga, mavjud sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida neft va gaz sanoatini rivojlantirish bozor tamoyillari asosida olib borilmoqda va bu sohada raqobat muhitini shakllantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda iste‘molchilarga uzluksiz energiya ta‘minotini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (MTB) doirasida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar investitsion faoliyatni faollashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur jarayonni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar — xususan, 2017-yil 10-oktyabrdagi bojxona tartiblarini belgilovchi Nizom, PQ–927-son va PQ–3107-son Prezident qarorlari — neft va gaz sohasida investitsion muhitni sezilarli darajada yaxshilagan. Ushbu hujjatlar investorlarga huquqiy kafolatlar berish, bojxona tartiblarini soddalashtirish, fiskal imtiyozlar yaratish va davlat hamda investorlar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, PQ–927 qarori orqali investitsiyalarni jalb etish jarayonining institutsional asoslari mustahkamlanib, investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish, monitoring qilish va ularning samaradorligini oshirish imkoniyati yaratildi. PQ–3107 qarori esa tarmoq boshqaruvini modernizatsiya qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va moliyaviy shaffoflikni oshirish orqali investitsion samaradorlikni yanada kuchaytirdi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan huquqiy va institutsional islohotlar neft va gaz sanoatida investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Neft va gaz sanoatida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish uchun, avvalo, normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish zarur. Bu investorlar uchun barqaror va prognoz qilinadigan huquqiy muhitni shakllantiradi. Shuningdek, bojxona va soliq jarayonlarini raqamlashtirish orqali byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va shaffoflikni oshirish lozim.

Investitsiya loyihalarini baholashda zamonaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar (NPV, IRR, PI) va risklarni chuqur tahlil qilish tizimini joriy etish muhimdir. Bundan tashqari, “O‘zbekneftgaz” AJ va boshqa korxonalarda korporativ boshqaruvni rivojlantirish, mustaqil direktorlar rolini kuchaytirish hamda ichki audit tizimini takomillashtirish talab etiladi.

Shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash va xorijiy tajribani o‘rganish orqali inson kapitalini rivojlantirish zarur. Mahsulotni chuqur qayta ishlashni kengaytirish esa qo‘shimcha qiymat zanjirini oshirib, eksport daromadlarini ko‘paytiradi.

Investorlar uchun qo‘shimcha soliq va bojxona imtiyozlari, kafolatlar hamda infratuzilma sharoitlarini yaxshilash investitsion jozibadorlikni oshiradi. Ilmiy-texnik hamkorlikni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish esa konlarni o‘rganish va ishlatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston neft va gaz sanoati: Transformatsiya yo‘li bilan bozor munosabatlariga o‘tish. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-neft-va-gaz-sanoati-transformatsiya-yoli-bilan-bozor-munosabatlariga-otish>
- 2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.2008– yildagi “Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 927 sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.06.2017 yildagi “Neft-gaz tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3107-sonli qarori.
4. Nishanbay Sirajiddinov, Sardorbek Murtozaev. Fdi dynamics in uzbekistan: trends, reforms and institutional perspectives, fdi dynamics in uzbekistan: trends, reforms and institutional perspecti. “International Economic Trends”

UDK:339.543

BOJXONA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТАМОЖЕННЫХ УСЛУГ

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF CUSTOMS SERVICES

Ganieva Laylo Saliyjanovna

Xorazm viloyati bojxona boshqarmasi bosh inspektori

Annotatsiya

Mazkur maqolada bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Xizmatlar sifati, tezkorlik, raqamlashtirish va institutsional omillarning roli yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar asosida bojxona tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari hamda xalqaro tajriba asosida samaradorlikni oshirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: bojxona xizmatlari, samaradorlik, raqamlashtirish, logistika, tashqi savdo, bojxona nazorati, xizmat sifati, institutsional islohotlar, xalqaro tajriba, bojxona boshqaruvi

В данной статье анализируются теоретические основы повышения эффективности таможенных услуг. Освещается роль качества услуг, оперативности, цифровизации и институциональных факторов. Также на основе современных подходов обосновываются направления совершенствования таможенной системы и механизмы повышения